

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**Samarqand davlat chet tillar instituti**

**Tarjimonlik fakulteti**

«Himoyaga ruxsat etiladi»

Fakultet dekani

A. Sayfullayev \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014-y.

**Xolmurodova Karomatning**

filologiya 5220100-koreys tili ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish  
uchun

**« KOREYS ADABIY TIL ME'YORLARI VA SHEVALARNING O'ZIGA  
XOS XUSUSIYATLARI»**

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi



**Ilmiy rahbar: D.To'rayeva**

**Ilmiy maslahatchi: f.f.n.A.Rahimov**

«Ish muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etiladi»

( \_\_\_\_ -sonli bayonnoma, 2014 y., «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ )

Osiyo mamlakatlari tillari

kafedrası mudiri: \_\_\_\_\_ To'rayeva D.

**Samarqand-2014**

## Kirish

Til insonlar hayotida muhim vazifani bajaruvchi aloqa vositasi hisoblanadi. Jamiyatda tilning roli va ahamiyati katta bo'lib, jamiyatning, davlatning rivojlanishiga va taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Turli xalqlarning tillari hamisha o'zaro bir-birini boyitib rivojlanib kelgan. Bunday rivojlanish hech qachon bir yerda to'xtab qolmagan, doimo tillar chetdan kirib kelgan so'zlar va yozuv hisobiga mukammallashib borgan.

Bunday jarayon esa, shubhasiz, muntazam tadqiqotlarni, izlanishlarni talab etadi. Izlanishlar esa hamisha taraqqiyotga olib borishi hammamizga yaxshi ma'lum.

O'zbekiston mustaqilligi tobora mustahkamlanib, o'zining ijobiy natijalarini bera boshlagan bugungi kunda xalqimiz oldida hayotning moddiy va ma'naviy asoslaridan kelib chiqadigan yangidan-yangi ulkan vazifalar turibdiki, ularni amalga oshirishda ma'naviyatning ahamiyati, shubhasiz, benihoya kattadir. Zero yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi."<sup>1</sup>

Til har bir millatning ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi va o'zligini ifodalovchi muhim omillardan biri, insoniyat tafakkurining bebaho ko'zgusidir. Til asosiy muomala vositasi ekan, so'nggi yillarda chet tilini o'rganishga bo'lgan talab ancha oshib bormoqda. Bugungi kunga kelib esa til o'rganish-ijtimoiy hayotimizda alohida o'rin egallab, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Til o'rganish jarayonida nafaqat g'arb tillari, balki sharq tillarini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj va talab birmuncha yuqori darajaga ko'tarildi.

"Ta'lim jarayonini isloh etish va mehnat bozorida talab qilinadigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashda oliy o'quv yurtlari muhim o'rin egallamoqda. O'tgan

---

<sup>1</sup>Karimov. I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat. 2008. B. 29.

davr mobaynida ularning soni ikki barobar ortdi va bugungi kunda mamlakatimizdagi 59 ta universitet va oliy o'quv yurtida 230 mingdan ziyod talaba ta'lim olmoqda. Biz ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishlari uchun katta ahamiyat bermoqdamiz"<sup>1</sup>.

**Mavzuning dolzarbligi.** Dunyoning rivojlanish manzarasiga nazar tashlasak, unda turli sohalar o'ziga xos yo'sinda va biri – biridan farq qiluvchi sur'atlar bilan rivojlangan va rivojlanyotganining guvohi bo'lamiz. Mamlakatlarning o'zaro rivojlanishi, tajriba almashinishida til muhim o'rinni egallaydi. Shunday ekan, oxirgi yillar mobaynida tilni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin oshib bormoqda. Til ikki davlat o'rtasidagi eng muhim diplomatik aloqalarni olib borishdagi asosiy qurol hisoblanadi. Tarixdan ham ma'lumki, qo'shni yoki uzoq davlatlar o'rtasida mustahkam aloqani o'rnatish uchun elchilarga birinchi navbatda yuklatiladigan vazifa bu, albatta, o'sha davlat tilini o'rganish hamda kuchli diplomatik harakatlar orqali mustahkam aloqani o'rnatish bo'lgan.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, O'zbekiston Buyuk Ipak Yo'lida joylashgan bo'lib ko'pgina sharq davlatlari bilan savdo va madaniy aloqasi kuchli bo'lgan, shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki o'sha davrlardanoq O'zbekiston boshqa davlatlar bilan bir qatorda Koreya mamlakati bilan ham o'zaro do'stona aloqada bo'lgan, iqtisodiy, madaniy aloqalarni mustahkamlab, ko'p sohalarda yaxshi hamkor davlatlar sifatida nom qozongan. Buning isboti sifatida Koreya Respublikasining O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Kyung Je Minning "Jahon" axborot agentligiga bergan intervyusidagi quyidagi so'zlarni keltirish mumkin: "Korea Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi aloqalar

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. "Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqidan. Toshkent: O'zbekiston. 2012. B. 3

1400 yildan ortiq tarixga ega”<sup>1</sup>. Elchi janoblari keltirib oʻtgan ana shu faktning oʻziyoq Oʻzbekiston-Koreya munosabatlari tarixi uzoq oʻtmishga borib taqalishini yaqqol koʻrsatib turibdi. Bugungi kunda ham ilm-fan, madaniyat va sport sohalarida Koreya Respublikasi bilan hamkorlik qilishga respublikamiz hukumati va shaxsan yurtboshimiz Islom Karimov jiddiy xayrixohlik hamda ulkan ragʻbat bilan munosabatda boʻlmoqdalar. Mamlakatimizda koreys tiliga yoʻnaltirilgan maktab, litsey, kollej, institut va universitetlar faoliyat olib bormoqda. Ularda har yili yuzdan ziyod koreys tili mutaxassislari yetishib chiqmoqdalar<sup>2</sup>.

Shunday ekan, ikki davlat oʻrtasidagi aloqalar nafaqat siyosiy, iqtisodiy balki madaniy-maʼrifiy, fan-texnika, taʼlim kabi yoʻnalishlarda ham jadal surʼatlar bilan rivojlanib bormoqda. “Hozirgi kunda zarur qoʻllanmalar, oʻquv qurollari bilan taʼminlash uchun Koreya hukumati bilan kredit ajratish” toʻgʻrisida shartnomaga qoʻl qoʻyilgan<sup>3</sup>. Bugungi kunda yurtimizda Koreys tilshunosligining turli yoʻnalishlarida izlanishlar olib borilib, bitiruv malakaviy ishlari, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, ilmiy maqolalar yaratilib koreys tili rivojlanishiga hissa qoʻshib kelinmoqda.

Ikki davlat oʻrtasidagi aloqalar mustahkamlanib borgani sari koreys tiliga, madaniyatiga, tarixiga boʻlgan qiziqish ham tobora ortib bormoqda. Koreys adabiy til tarixi va shevalariga nazar tashlaydigan boʻlsak, hozirda amalda qoʻllaniladigan koreys tilining shakllanishiga nafaqat xitoy va yapon tillarining, balki ingliz tilining taʼsiri katta ekanligini sezishimiz qiyin emas. Shevalarning turli-tumanligining sababi hududlarning turli geografik muhitda joylashganligi hamda turli xil davlatlar bilan chegaradoshligidandir. Bugungi kunda Koreyada shevalar dolzarb masalalar qatorida turibdi. Buning sababi adabiy tilga boʻlgan qiziqish tobora ortgani sayin hozirda oʻz shevalarda soʻzlashadigan aholining soni kamayib bormoqda. Nafaqat adabiy tilga bolgan qiziqish, balki chetdan kirib

---

<sup>1</sup> Xalq soʻzi. 2010-yil.,17-yanvar, 4-son (4919).B.1.

<sup>2</sup> www.chamber.uz

<sup>3</sup> I.A.Karimov. Vatan ravnaqi uchun har birimiz masuldirmiz . T. 2001. B.39.

kelayotgan so'zlarni o'zlashtirish ham shiddatli tus olmoqda. Shu sababli bugungi kunda shevalarning asl ma'nosini saqlab qolish siyosati olib borilmoqda.

**Mavzuning obyekt predmeti:** Koreys adabiy tili va shevalarning o'zaro ta'sir doirasi qay darajada ekanligini aniqlash muhimdir. Davlat tili hamda shevalarning o'ziga xos xusiyatlari, o'xshash va noo'xsha tomonlarini o'rganishda olim Li chonminning tadqiqot ishlari hamda ushbu mavzuga oid barcha ma'lumotlarni qamrab olgan materiallar mavzuning obyekt predmeti sifatida olindi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari:** Koreys tilidagi shevalar bir qancha hududiy shevalarga bo'linadi. Bu hududiy shevalar o'rtasida o'zaro bog'liqliklar va umuman noo'xshash jihatlar anchagina hisoblanadi. Har bir shevani alohida o'rganadigan bo'lsak, ularning turli-tumanligining sababi joylashgan geografik o'rniga ham bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. Bir shevada so'zlashadigan koreys aholisi boshqa bir shevada so'zlashadigan aholi shevasini tushunmaslik holatlarini o'rganish kerak. Nima sababdan hozirda Koreyada shevalarning ahamiyati va roli pasayib ketayoganligini ham ko'rib chiqish lozim. Ayniqsa, Janubiy Koreyada adabiy til hamda chetdan kirib kelayotgan neologizmlarning ahamiyati esa tobora ortib borayotganligi muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Qo'yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar belgilandi:**

- Koreya yarim orolida 2 ta katta asosiy shevaga, ya'ni Seul va Pxenyanga bo'linish sabablarini o'rganib chiqish;
- Hozirgi kunda nima sababdan shevalarning asl mohiyatini saqlab qolish siyosati yuritilmoqda?
- Shevalarning o'zaro o'xshash va noo'xshash tomonlarini ko'rib chiqish;

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi:** Mazkur ish kirish, ikki bob, 4 paragraf, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, obyekt predmeti, maqsad va vazifalari, tarkibiy tuzilishi ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishining **“Koreys tili dialekti va ularning tasnifi”** deb atalgan birinchi bobida shevalarning hudud jihatidan bo'linishi va jamiyatda tutgan

o'rnini aniqlash hamda Seul va Pxenyan shevalarining leksik va fonetik xususiyatlarini haqida batafsil bayon etiladi.

**“Shevalarning o'ziga xos xususiyatlari va arxaizm”** deb nomlangan ikkinchi bobida esa koreys tilidagi barcha hududiy shevalarning leksik va fonetik jihatdan o'xshash va farqli jihatlari va arxaik so'zlarning koreyscha shevalarda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar ko'rsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning xulosa qismida to'plangan natijalar ilmiy asosda xulosalangan.

## **I BOB. Koreys tili dialektlari va ularning tasnifi.**

### **1.1. hududiy shevalarning hozirgi zamon tilshunosligida tutgan o'рни.**

Dialekt-tilning bir turi bo'lib, hududiy, jamiyat tomonidan bir-biriga bog'liq bo'lgan muloqot vositasidir. Dialekt–sheva muloqotning haqiqiy sistemasi bo'lib, (og'zaki yoki belgili, yozma bo'lishi shart emas) o'z lug'ati va grammatikasiga ega. Odatda dialekt deganda, avvalo, qishloq teretorial-hududiy tushunilgan.

Koreys tilida 60 mln.ga yaqin insonlar so'zlashadi. Koreys tilida so'zlashuvchilarning ko'p qismi koreya yarim oroli va uning yaqinidagi orollarda yashaydi. 3 mln.dan ziyod kishilar esa, dunyo bo'yicha tarqalib ketgan. Koreys tilining kelib chiqishi koreys xalqi singari kelib chiqishi noaniq. Bu masala XIX asrda g'arb olimlari koreys tilini “kashf” qilganlarida yuzaga keladi. Bunda koreys tilini xitoyga, yapon, tibet, o'rol-oltoy, qadimgi hindga, hind-yevropaga va ayna tillari bilan ginetik yaqin degan fikrlarni bildirishgan.

Barcha nazaryalar ichida hozirda mavjud bo'lganlari orasida koreys va oltoy tili o'rtasidagi qarindoshlik rishtalari (tyursk, mongol va tungus-manjur tillari) mavjudligi to'g'risidagi fikrlar ko'plab olimlarni qiziqtirib qo'ygan.

Oltoy, koreys va yapon tillarining nafaqat grammatik tuzulishi o'xshash, balki ularda unlilarning garmoniyasi va sheva yo'qligi o'xshaydi. Ko'plab mamalakatlarning tillari o'rtasida bu borada qizg'in bahslar bo'lib o'tgan. Qolaversa, bu tillar grammatikasida va leksikasida umumiy elementlari borligi ham aniqlangan. Bu masalalar to'liq o'z yechimini topmagan bo'lsa-da, koreys tili oltoy va yapon tiliga yaqin munosabatda degan taxminlar mavjud. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, Manjuriya va Koreya yarim orolida 2ta til guruhlar mavjud edi: shimoliy va janubiy. Shu bilan birga VII asrda Silla davlati Pekchje qirolligini (koreya yarim orolining janubiy-g'arbidagi) va shimoliy tomonidagi Koreyani bosib oladi. Bu esa davlatda til domenantlashuviga olib keladi. Natijada 3 ta davlat tillarining birlashishiga, ya'ni Silla tili asosida birlashuviga olib keladi. X asrda Koryo qirolligiga-davlatiga asos solinadi. Poytaxt

esa Koreya yarim orolining markaziy qismida joylashgan Keson shahriga ko'chiriladi. Davlat tiliga asos sifatida Keson dialekti belgilanadi.

XIV asr oxirlarida Choson qirolligi tashkil topadi va poytaxti Seulga ko'chiriladi, biroq Seul geografik jihatdan Kesonga yaqin joylashgani sababli til rivojida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Davlat va hududiy shevalar.

Koreys tili butun Koreya yarim oroli bo'yicha bir qancha shevalardan foydalanadi. Yarim orolning relyefi tog'li hisoblanib, har bir sheva taxminan geografik regionlarga mos keladi. Dialektning hamma qismi Koreyaning 8 ta viloyati nomi bilan nomlangan.

Seul shevasi – Janubiy koreyaning rasmiy tili. Bu shevada Seul, Inchxon, Janubiy Koreyadagi Kyongido viloyati va Shimoliy Koreyadagi Keson viloyatidagi aholi so'zlashadi.

Pxenyan shevasi – Shimoliy Koreyaning rasmiy tili. Bu shevada Pxenyan, Kvanso va Chagando viloyati aholisi so'zlashadi. Seul shevasida Sudogvon, Inchxon va Kyongido hududlaridagi aholi ham so'zlashadi. Yo'nalishni bildirib keladigan -로 va -고 qo'shimchalari bu shevada -루 va -구 deb tallafuz qilinadi.

Hududiy shevalar:

- ✚ Chxunchxon shevada – Janubiy Koreyadagi janubiy chxunchxon, shimoliy chxunchxon va Tedjon shahri so'zlashadi.
- ✚ Konvon shevasidan – Shimoliy va Janubiy Koreyadagi Konvondo viloyati aholisi foydalanadi.
- ✚ Kyonsan shevasida –Janubiy Kyonsan va Shimoliy Kyonsan ( Yonnam hududi ), Janubiy Koreya va Pusan, Tegu va Ulsan shaharlari so'zlashadi.
- ✚ Xamgyon shevasida – Janubiy Xamgyon, Shimoliy Xamgyon va Shimoliy Koreyadagi Yangando ahalosi so'zlashadi. Bundan tashqari bu shevada Xitoy va sobiq SSSR hududida yashovchi koreyslar ham so'zlashadi.
- ✚ Xvanxe shevasidan – Shimoliy Koreyadagi Janubiy va Shimoliy Xvanxe aholisi foydalanadi.
- ✚ Cholla shevasi – Janubiy Koreyadagi Janubiy Cholla va Shimoliy Cholla



( Xonam hududi ) va Kvandju aholisining shevasi hisoblanadi.

Chedju shevasida – Chejudo viloyati va Janubiy Koreyaning janubiy-g'arbiy qirg'og'idagi aholisi so'zlashadi. Bu sheva Koreyaning boshqa shevalaridan ancha farq qilib, ancha eski so'z shakllarini saqlab qolgan sheva hisoblanadi. Shuningdek Chejudo shevasida xitoy hamda yapon tillaridan o'zlashtirilgan ko'plab so'zlar mavjud. Yana hozirda yo'q bo'lib ketgan Tomna tiliga oid so'zlar ham mavjud. Cheju shevasining ohangi ham boshqa koreys shevalaridan tubdan farq qiladi. Bu shevada undosh harflar kuchliroq talaffuz qilinishini kuzatishimamiz mumkin. Cheju shevasining farqli jihatlaridan biri, u boshqa hududdagi shevalar kabi shakllanmagan. Masalan, seul shevasida yoshi katta insonlarga 안녕하세요? (“assalomu alaykum”), Cholla shevasida 안녕하십니까? (“assalomu alaykum”), Cheju shevasida esa, 반갑습니다 (“qandaysiz?”) deb aytishadi.

Biroq Koreyada boshqa mamalakatlardagi kabi o'zining me'yorlashgan-adabiy tili mavjud, ya'ni umummilliy til. U belgilangan me'yorda yozilgan va rasmiy, jamoaviy muhitda foydalanishga joriy qilingan. Tilni me'yorlashtirish Koreyada 1930-yillarda boshlanib, tilchilar me'yorlashgan til butunliklarini tanlab olishga kirishishgan.

Tilning muloqotdagi muammolari bir tilning shevasi aralashib ketishi muammolari bilan bog'liq. koreys dialektining muhofaza funksiyasi ona tilidan chetda bo'lishi, yangi hududiy koreys tilining kelib chiqishi og'ir glatagonik<sup>1\*</sup> jarayon natijasidir. Analogok proseslar, ya'ni o'xshash jarayonlar barcha mintaqalarda doim bor bo'lib, u hozirgacha davom etib kelmoqda. Bu ayniqsa yo'q bo'lib ketish arafasida turgan ko'p sonli xalq tillariga tegishli.

Koreya yarim orolining shevasi va adabiy tilining o'zaro munosabatlari hozirgi kunnig eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib, muloqotdagi o'zlashtirma shevalar hamda ularning adabiy tilga aralashib ketishi natijasida yangi til shakllinishiga olib kelib, hozirda koreyslar shu tilda so'zlashmoqdalar. Bu holat koreys tili dialektologiyasining izlanuvchi olimlarini hamda jamiyatshunos

---

<sup>1</sup> Глоттогоник процессеснинг маъноси сузларнинг келиб чиқиши-википедиядан олинган.

olimlarini o'z e'tiboriga tobora tortmoqda. Hozirgi kunda ommaviy aloqa vositalarining mamalakatga hech qanday to'siqlarsiz kirib borishi natijasida koreys tili shevasining intensiv aralashuviga sabab bo'lmoqda. Biroq bu jarayon XX asrning 60-yillaridayoq boshlanib ketgan. Koreys urushi vaqtida aholining shimoldan janubga faol yurishi boshlanadi. Buning natijasida esa shimoliy koreys shevasi bilan janubiy koreys shevasining aralashuvi boshlanadi.

Baliqchilik bilan shug'ullangan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan kishilarga ish izlab boruvchilar soni tobora ko'payib ketdi. Bu ham tabiiyki, shevalarning aralashib ketishiga olib keldi. Qolaversa, armiya xizmatiga ketgan yosh yigitlar Koreyaning turli viloyatlaridan kelgan bolalar bilan tanishib, ularning shevalarini o'rgangan hamda o'zlashtirgan. Shulardan, ya'ni shunday aralash shevalardan biri quyidagicha ifodalangan: (faqat men). Bu ikki iboraning birlashuvi (Chxuchxon viloyati) va (Cholla viloyati) natijasida paydo bo'lgan. Hozirda avvalo, markaziy shevaning boshqa shevalar bilan aralashuvi yuzaga kelgan Kyonsan qirg'oqlarining sharqiy tomonidagi yoshlar o'z nutqining so'ngida so'roq qo'shimchalaridan keng foydalanishadi. Bunday so'zlar faqat so'roq sifatida ishlatilib, ular markaziy shevani o'zlashtirganiga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan: Bu uy kimniki?

Shevalarning belgilari ularning o'zaro aloqalari fonetika, leksika, ohang va grammatikasida yaqqol namoyon bo'ladi. Biroq shevaning asosiy belgisi maxsus ohang yoki ifodalanishida xarakterlanadi. Shevada so'zlaydiga kishi adabiy tilni o'zlashtirgan bo'lsa-da, muloqotda sheva ohangi saqlanib qolingan bo'ladi.

Ohangdorlikning borligi yoki yo'qligi fonetik usullardagi farqlanishi, ya'ni bir tovushning boshqasi bilan almashinishi ko'pincha orfagrafik xatolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Sheva o'zining yozma shakliga ega bo'lmasa-da, o'z adabiy tilini to'liq bilmagan aholining aytishicha, o'z shevasini yozma shaklda yozishar ekan. Ko'p hollarda shevalar adabiy tilga ham o'z ta'sirini ko'rsatar ekan. Shevada so'zlovchi shaxs o'z adabiy tilida so'zlasa ham, sheva ohangi yoki uning bo'laklari, qo'shimchalari, kelishiklarini ishlatar ekan. Bunday sharoitda "aralash til" hosil bo'lib, u adabiy til va sheva o'rtasidagi aloqa natijasida yuzaga keladi.

“Oraliq til” til sistemasida osongina o‘z o‘rniga ega bo‘lib, og‘zaki nutq so‘zlashuvlarida foydalaniladi.

Agar koreys aholisi har xil viloyat shevalarini tushunishi va farqlashi to‘g‘risida gaplashadigan bo‘lsak, janubiy koreys lingvist olimi Li Chonminning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, dialektlarni 4ta asosiy dialektga bo‘lishimiz mumkin:

- 1) Seul shevasi yoki Kyongi viloyati shevasi,
- 2) Kyonsan viloyati shevasi,
- 3) Cholla viloyati shevasi,
- 4) Chxuchxon viloyati shevasi.

Qolaversa, aynan ana shu viloyatlarning shevalarini muloqotda tez-tez uchratishimiz mumkin. Chejudo shevasi alohida ajralib turadi, uni boshqa shevalardan tezda farq qila olasiz, lekin bu shevani tushunish anchayin qiyin hisoblanadi.

Shevalarni tushunishga to‘xtaladigan bo‘lsak, 75% kishilar Chejudo dialektini tushunish qiyinligini tasdiqlaydi. Ikkinchi o‘rinda Kyonsan viloyati dialekti turadi. Uchinchi o‘rinda, Cholla dialekti hisoblanadi.

Kanvando shevasiga to‘xtaladigan bo‘sak, u 5 viloyat bilan chegaralangan: Xamgyon, Xvanxe, Kyonge, Chxunchxon va Kyonsan. Bu sotsial masala shuni hal qilib beradi-ki, bu dialektning hech bir alohida xususiyati bu viloyatlarga nisbatan yo‘qligi bois janubiy koreyslarga ushbu shevani tushunishda hech qanday qiyinchilik to‘g‘dirmaydi.

Ko‘plab so‘rovnomalarga ko‘ra, Shimoliy Koreya shevasini farq qilmasligining sabablari shundan iboratki, 50 yildan buyon Koreyaning janubiy aholisi shimoliy koreyslar bilan deyarli aloqada bo‘lmay, Shimoliy Koreya bilan ommaviy aloqa vositalari orqali ham aloqaga kirishmaydi va yarim orolning shimoliy shevasining alohida ahamiyati borligini, hatto, unutib ham yuborishgan.

Koreys tili shevasida gaplashuvchi ko‘plab kishilar muloqot davrida asta va tiniq gaplashadi, ular qiyin bo‘lmagan ibora va so‘zlardan foydalanishib, bir-birini tushunishda umuman qiynalishmaydi. Koreyslar har xil shevalarga va adabiy tilga

qanday munosabat bildirishadi degan savolga aniqlik kiritishda Li Chonmin tomonidan quyidagi fikrlar bildirildi: “ Koreya aholisi har bir shevaning muloqotiga tavsif berar ekan, ular: eshitish yoqimli, yoqimsiz, ishonchli, xush kayfiyat bag’ishlovchi, viloyatga xos, tez, ohista, viqorli, sirli, tarbiyani aks ettirgan, - degan javoblarni aytib o’tishgan”.

U yoki bu viloyat shevasini qabul qilish xaraktriskasini berish maqsadida kelib chiqishi har xil viloyatdan bo’lgan, lekin hozirda Seulda yashovchi 82 ta katta sinf o’quvchilari va 35 ta aspirant va studentlar o’rtasida koreys tili shevasiga bo’lgan munosabat va ta’riflarni aniqlash maqsadida so’rovnomalar o’tkazildi. Va bu so’rovnomalar natijasi quyidagicha:

Kyonsan xush kayfiyat bag’ishlovchi deganlar–20%

Tez–18%

Eshitish yoqimsiz–20%

Cholla osuda deganlar–8%

Sirli–33%

Yoqimsiz–35%

Chejudoni tarbiyani aks ettirgan deganlar–5%

Viloyatga xos–17%

Yoqimsiz–24%

Chxunchxon viqorli deganlar–22%

Viloyatga xos–25%

Eshitish yoqimsiz–17%

Adabiy yoqimli–75%

Sirli–11%

Osuda–47%

Yuqoridagi jadvaldan ko’rinib turibdiki, so’ralganlarning katta foizi adabiy tilga yaxshi munosabat bildirib uni “yoqimli” va “osuda” deyishgan. Adabiy til har xil shevalardan tarixiy shakllangan. Janubiy Koreyada adabiy til deb Seul so’zlashuvi va markaziy shevaga asoslanib shakllangan til hisoblanadi. U boshqa mamalakatlarning adabiy tillari kabi yuqori sotsial darajaga ega. Adabiy til

Koreyada nafaqat umum qabul qilingan deb hisoblanadi, balki koreyslar psixologiyasida sheva bilan teng qatorda turadi.

“Insonlar xarakterini u gapirayotgan shevaga qarab bilib olish mumkinmi?”, degan savolga taxminan 40% koreyslar buni taxmin qilish mumkin desa, 30% koreyslar esa qaysidir jihatini bilish mumkin deyishdi, qolgan 20% aholi esa buni bilish mumkin emas degan javoblarni aytishdi. Shu tariqa so’rovlardan quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin, muloqotdagi sheva orqali insonlarning xarakterini bilishimiz yoki taxmin qilishimiz mumkin ekan.

Shevalar umr yo’ldosh tanlashda ham alohida rol o’ynashi mumkin ekan. “Umr yo’ldoshingiz qaysi shevada so’zlashini xohlar edingiz?”, degan savolga har xil javoblar olindi. Talabalarning 70% Chejudo shevasida, katta sinflarning 70% Kyonsan shevasida, qizlarning 80% esa Kanvondo shevasida degan javoblarni aytishdi. Faqat 15-20% odamalargina ularning umr yo’ldoshlari o’zlarining qadrdon shevalarida so’zlashishlarini xohlashlarini bildirishgan. Bu fikrni Chejudoda yashovchi 45% erkaklar ham tasdiqlaydi. Faqat Seulda o’qiydigan 3 talaba(Chejudoda tug’lishgan) eri yoki xotini adabiy tilda gapirishini xohlashlarini aytishadi. “Adabiy til sizga qanday taassurot qoldirdi?”, degan savolga korespondentlarimiz: “Menga uni eshitish yoqmaydi, hech qanday, odatdagidek” kabi javoblarni olishdi. Cholla viloyatidagi ko’plab talaba va o’quvchilar bunday sotsial so’rovnomalarda ishtirok etishganda ular bir-birlari bilan oldingidek o’z shevalarida muloqotda bo’lishlarini aytib o’tishgan.

Shevalarning seriallarda, filmlarda foydalanilishi kichik yosh avlodga, ayniqsa, o’quvchilarga katta qiziqish uyg’otadi. Rossiyada esa, rus tilida so’zlashuvchi aholiga ahamiyati bo’lmagan va faqat izlanuvchi olimlarga ahamiyati bo’lgan shevalar rus tilida so’zlashuvchi aholi oldida u darajada e’tiborga olinmaydi. Lekin koreys tili shevasi nafaqat lingvistlar, balki oddiy odamlar uchun ham alohida ahamiyatga ega. Koreys tili shevasi har bir koreysning g’ururi hisoblanib, har qanday qulay sharoitda ular bu shevada gaplashishga harakat qilishadi.

Har bir sheva o'z sistemasiga ega. Buni yaxshi yoki yomon deyish noto'g'ri. Koreya hukumati shevalarni saqlab qolish siyosatini amalga oshormoqda. Shevalarni saqlab qolish siyosati olib borilishiga qaramay, shevada so'zlashuvchilar orasida adabiy tilni o'rganish tobora ko'payib bormoqda. Vaqt o'tishi bilan, balki shevalarning ahamiyati yo'qolib ketishi ham mumkin. Shuning uchun hozirda Janubiy Koreyada koreys tili shevasini o'rganish qizg'in tusda olib borilmoqda.

## **1.2. Seul va Pxenyan shevalarida leksik va fonetik jihatdan o'xshash va noo'xshashliklari.**

Koreya ozodlikka erishgach, u ikki katta hududga: Shimoliy va Janubiy mamalakatlariga bo'linib ketdi. Unda nafaqat davlat siyosiy tuzumi, sotsial-iqtisod rivoji, madaniy qurulishi, balki kelajakda koreys adabiy tilining shakllanishi ham o'zgarib ketdi. 1945-yildan boshlab bu ikki mamalakatning adabiy tili shakllanishi boshlanadi. Shu tariqa hozirgi zamon adabiy koreys tili ikki markazga ega bo'lgan, ya'ni Seul va Pxenyan til-shevalari yuzaga kelgan.

Shimol va Janub til bo'linishlarining o'zaro bog'liq uchta faktor, ya'ni dalil mavjud. Birinchidan, bu ikki koreys davlatining 60 yillik tarixining bog'liqligidir. Ikkinchidan, ikkita qarama-qarshi sotsializm-kapitalizm sistemasining siyosiy, sotsial-iqtisodiy va ideologik farqi. Uchunchidan, Shimol va Janubning hukumatlari olib borgan til siyosatining har xilligi. KHDR da bu siyosat “문화어—madaniy til”ning yaratilishiga qaratilgan bo'lib, Pxenyan shevasiga asos solgan bo'lsa, Janubiy koreyada 표준어—standart me'yorlashtirilgan til asos qilib olinib, Seul shevasi deb nomlangan.

Grammatika skelet, sterjen, til vazifasida bo'lsa, leksika—go'sht, massa degan taqqoslash, qiyoslashlar mavjud. Ya'ni Grammatik tizim nisbatan stobil va doimoy bo'lib qolsa, leksik tartib harakatchan va o'zgaruvchan sifatida xarakterlanadi. Bundan Janubiy va Shimoliy Koreyaning adabiy tili asosan lug'at tartibidagi farq bilan ifodalanishiga to'liq asos berishimaz mumkin. Ikki koreys davlati leksikasining tarqalishiga bir necha sabalar ham bor.

Birinchi sabab hozirgi koreys tilida shevaning turli ko'rinishlarining mavjudligi. Koreys tilida 6-7 ta asosiy shevani farqlashadi. Shimoliy-sharqiy, shimoliy-g'arbiy, markaziy, janubiy – sharqiy, janubiy – g'arbiy va Chejudo.

60-yillargacha KHDRning adabiy tili markaziy Seul shevasi hisoblangan. Pxenyan shahri KHDRning bosh ma'muriyatiga va siyosiy markaziga aylanishi natijasida adabiy tilga shimoliy shevasiga real e'tibor qaratdi, bilaks Koreya janubida esa, markaziy sheva leksimalari saqlanib qolingan. Masalan, Shimoliy Koreyada shaman ayoli 만신, deb atalsa, Janubda 무당 deyishadi. Seul va Pxenyan leksikasini farqlar ekanmiz, hozirgi koreys tili negizi Janub va Shimol dialektiga borib taqalishini anglaymiz.

Shuningdek so'zlarda mavjud bo'lmagan farqlar ham bor bo'lib, ular yozilishda, talaffuz qilinishda bilinadi. masalan, Shimolda “ r ” harfining adabiy til normasi bo'lib, so'z boshida keladi: *sartaroshxona* –리발소 (*shimolda*), –이발소 (*janubda*); *maqola* –론문 (*shimolda*), –논문 (*janubda*); *tarix* –력사 (*shimolda*), - 역사 (*janubda*); *poezd* –령차 (*shimolda*), –열차 (*janubda*); *mehnat* –로동 (*shimolda*), –노동 (*janubda*). Shimolda “ayol” so'zi quyidagicha yoziladi va o'qiladi: –녀자, 녀성, Janubda esa –여자, 여성; *tish* –니 (*shimolda*), –이 (*janubda*).

Koreys tilida bir-biriga o'xshash bo'lmagan ko'plab shevalar mavjud. Keyingi 10 yil ichida “ to'g'ri” koreys tili deb poytaxt Seul shevasi e'lon qilingan. Rossiya hududidagi, ya'ni Sovet koreyslari umuman boshqa shevada so'zlashadilar, buning sababi qadimda ularning ajdodlari Rossiya hududiga kelib qoladilar va ular Rossiya bilan chegaradosh bo'lgan shimoliy-sharqiy viloyat Xamgyon shevasida so'zlashadilar (bu Saxalindagi koreyslarga tegishli emas, ular Koreyaning janubiy viloyatlaridan yangi Koreyslarga tegishli). Bu so'zlashuvni “buzilgan” deb atash noto'g'ri bo'ladi, chunki u qadimgi holatini saqlab qolgan bo'lib, hozirda Seul shevasida yo'q bo'lib ketgan. Koreys tili Koreya yarim oroli, KHDR, Yaponiya, SSSR, AQSHda keng tarqalgan. 75 mln. aholi shu tilda so'zlashishi aniqlangan bo'lib, jumladan 47 mln kishi Janubiy Koreyada, 23 mln. kishi KHDR da, 2 mln. kishi Xitoyda (asosan Yanben-Koreys avtonom okrugida), 600 ming kishi

Yaponiya va AQSHda 200 ming O'zbekistonda, 150 ming kishi Rossiyada, 100 ming kishi Qozoqistonda shu tilda so'zlashadilar.

Ko'plab olimlar koreys tilini tungus-manjur guruhiga mansub deb aytishadi. Dunyo tillarining eng qadimgilaridan hisoblangan koreys tili ko'p asrlik Xitoy madaniyatining e'tibori, Yapon okupasiyalari, II Jahon urushidan keyingi Amerika harbiylarining Koreyada ekanligiga qaramay, o'zligini, tabiiyligini, milliyligini, asrga tatugulik ichki dunyosini yo'qotmagan holda har bir Koreys xalqi tomonidan saqlab qolingani.

Bu formalar muloqot qilishda, ifodalanishda ma'lum so'zlar yordamida aytiladi. Hamsuhbatga bo'lgan hurmatni bildirishda fe'l yoki sifat oxiriga hurmat ma'noni beradigan qo'shimcha qo'shiladi.

Masalan, 만나다- (uchrashmoq) fe'li-o'z tengi yoki yaqin tanishiga nisbatan 만나 tarzida qo'llaniladi, tanish bo'lmagan yoki yoshi sal katta kishilarga nisbatan 만나요 yoki 만났어요 qo'llaniladi, yoshi katta kishilarga nisbatan – 만납시다 yoki yanayam hurmatliroq, ulug'roq kishilarga nisbatan esa– 만나십시오 shakli qo'llaniladi.



## **II BOB. Shevalarning o'ziga xos xususiyatlari va arxaizm**

### **2.1. Koreys tilidagi shevalarning fonetik va leksik xususiyatlari.**

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon o'tgan vaqt ichida jahon hamjamiyatida o'z o'rniga, dunyo siyosati maydonida o'z mustaqil ovozigacha ega bo'lgan davlat sifatida tan olindi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov olib borayotgan oqilona siyosat tufayli xorijiy tillarni o'zlashtirayotgan talabalar jahon mamlakatlari tili tarixiy tarakkiet boskichlari, bevosita o'rganilayotgan tilning paydo bulishi va rivojlanishi ichki tuzilishining tasnifi xakidagi bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

«Dialektologiya» fanining bosh vazifasi, talabalarga tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi ichki tuzilishining tasnifi, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, adabiy til va shevalar o'rtasidagi farqlar, qadimgi shaharlardagi dialektlarning xozirgi davrdagi ko'rinishi haqidagi tushunchalarni yetkazib berish va boshqa bir nechta asosiy mavzulardan iborat.

«Dialektologiya» fani Koreys tili tarixi, Koreya geografiyasi, tinglab tushunish, tovushlar talaffuzi ustida ishlash kabi mashg'ulotlar va fanlar bilan bevosita bog'liq.

«Dialektologiya» fanining vazifalaridan biri talabalarning shevalar xaqidagi bilimlarini kengaytirish, nutq madaniyatini to'g'ri yo'naltirish va ta'lim sohalariga oid tarkibini chuqur o'zlashtirishdan iboratdir.

**Sheva** bir millatga mansub bo'lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik (ya'ni tovush), leksik (ya'ni so'z) va grammatik (ya'ni qo'shimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi.

#### **Seul shevasi**

Seul shevasi orasida Kyongido shevasi boshqa shevalarga qaraganda katta ahamiyatga egadir. Kyongido shevasi Seul shevasi tarkibida bo'lib, alohida mustaqil sheva sifatida ajratib ko'rsatilmaydi. Biroq bunday bo'lishi mumkin emas, chunki Kyongido shevasi ham alohida sheva sifatida o'rganilishi kerak. Seul shahri va Kyongido viloyati shevalari orasida farq bor.

Seul shevasining o'ziga xos xususiyatlari:

1. Unlilar tizimi 10 ta tovushdan iborat:

이, 에, 애, 위, 외, 어, 오, 우, 으, 아

Lekin bugungi kunga kelib, *ㅓ* va *ㅜ* tovushlarining foydalanilishida alohida harf sifatida qaralmaydi.

2. Ohangdoshlik bo'lmasada, tovush cho'ziqliligi mavjud.

3. **Major** unlini (아,야,오,요) **minor** unliga o'zgarishini kuzatishimiz mumkin (ㅓ, 여, 우, 유, 으, 이).

Misol uchun: 가도 - [가두]      들어도 - [들어두]

4. [ㄱ], [ㄴ], [ㄷ] undoshlari jarangli undoshlar orasida kelganda tushib qoladi yoki kuchsiz aytiladi. Dastlab koreys tili butun hududda bir xil qo'llanilgan, keyinchalik, ya'ni bugungi kunga kelib ㄱ, ㅌ, ㄷ undoshlari jarangli undoshlar orasida kelganda kuchsiz yoki kuchliroq talaffuz qilinadi:

Masalan: 마을 (seul shevasi) – 마을 (kyongido shevasi)

5. ㄴ va ㄹ harflari so'z boshida kelsa, tallafuz qilinmaydi.

Masalan: 녀자 - [여자]

리발수 - [이발수]

ㄱ, ㄴ, ㅈ, ㅌ, ㄷ undoshlari so'z boshida kelsa, kuchaytirilgan holda ifodalanadi.

Masalan: 꼬추 - [꼬추]

수세미 - [쭈세미]

바닥 - [빠닥]

6. Agar so'zning oxiri undosh hamda ㄱ yoki ㄷ bilan tugaydigan bo'lsa, ularning orasida [ㅡ] tovushi qo'llaniladi.

Masalan: 갈다 - [가트다]

갈고 - [가트고]

7. Suhbatdoshga murojaat qilish qoidasining 6 xil darajali formasi mavjud:

해라, 해, 하게, 하오, 해요, 하십시오.

8. Fe'lining oxiri 오 va 수 bilan tugasa, bu harflarning o'rniga 우 va 수 dan foydalaniladi.

9. Hurmat formasidagi so'zning oxirida -ㅁ쇼, -ㅁ쵸 formalaridan foydalaniladi.

10. Tallafuzda so'zning boshi va tugallanish orasiga qo'llaniladigan yana bir asosiy narsa bor, oxirgi va oxirgidan oldingi tugallanishning o'rtasiga ㅇ harfi qo'llaniladi.

Masalan: 아니오-[아니에요]

하시오-[하세요]

11. Uzun va qisqa inkor formalar mavjud. Har ikkala formadan ham foydalaniladi.

Masalan: \*놀지 못 한다

\*못 논다

\*놀지 않는다

\*안 논다

12. Leksikaga oid so'zlarning bir nechtasini misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

꿈-살아 있는 꿩 (tirik tustovuq),

뽕-뽕 (yanoq),

생치-죽은 꿩(o'lik tustovuq),

네-예(ha)

### **Kyongido shevasi**

Kyongido shevasidagi ba'zi xususiyatlar qo'shni viloyat shevalari bilan o'xshashdir. Bu o'xshashliklarni Xvanxedo, Kanvando va Chxunchxondo viloyat shevalarida uchratishimiz mumkin.

Kyongido shevasining xususiyatlari:

1. 10 ta unli harf sistemasidan iborat:

이, 에, 애, 위, 외, 어, 오, 우, 으, 아

2. ㅈ va ㅊ undoshlari til oldi [t] bo'lib kelish xususiyatiga ega.

3. ㅓ va ㅕ undoshlari jarangli undoshlar orasida kelganda tushib qolmaydi.

Masalan : 깨울-[깨굴]

냉이-[나생이]

뿌리-[뿌레기]

Ansonge va Inchxonedan tashqari butun Kyongido hududida [ㅁ] undoshi jarangli undoshlar orasida kelganida talaffuz qilinmaydi.

Ansonge va Inchxoneda [ㅁ] undoshi talaffuz qilinadi.

Masalan: 새우-[새뱅이]

4. Jarangdorlik bo'lmasada, tovush cho'ziqliligi mavjud.

5. "So'z boshi qoidasi" mavjud.

6. Undoshlardan oldin tanglay unli tovushlari kelsa, so'z talaffuzda o'zgaradi.

ㅸ harfining o'zgarishi - [ㅸ], ㅹ-[ㅺ], ㅻ-[ㅸ], ㅽ-[ㅺ], ㅿ-[ㅸ].

Masalan : 해돋이-[해도지]

같이-[가치]

기름-[지름]

7. Kuchsiz undosh bilan boshlanadigan so'z talaffuzda kuchliroq aytiladi.

Masalan: 파-[파]

시래기-[씨래기]

8. Unli tovushlarning o'zgarish hodisasi:

Masalan: 며누리-[메누리]

사슴-[사심]

[ㄴ] tovushining orttirilishi:

Masalan: 이제-[인제]

고치다-[고친다]

ㄹ tovushining talaffuzda [ㄹㄹ] tarzida orttirilishi:

Masalan: 제으르다-[제을르다]

다르다-[달르다]

Lekin, agar (padchimda) ㄹ undoshidan keyin ㅁ undoshi kelsa, faqat ㄹ undoshi talaffuz qilinadi:

Masalan: 넓다-[넌따]

뵈다-[뵈따]

9. Tovush cho'ziqliligining talaffuzda o'zgarishi.

Masalan: 덩다-더웁다

맏다-매웁다

10. Tugallanuvchi kelishik qo'shimchalaridan foydalaniladi.

Tushum kelishik -을/를, Qaratqich kelishik -의, Birgalik kelishik -으로/으루/루, Birga, birgalikda-와/과/하고.

11. Suhbatdoshga murojaat qilish qoidasining 6 xil formasi mavjud.

Masalan: 해라, 해, 하게, 하요, 해요, 합쇼.

12. Uzun va qisqa inkor formalar mavjud.

Masalan: \*안 먹는다

\*먹지 않는다

\*못 먹는다

\*먹지 못 한다

13. Ayrim leksik so'zlardan foydalanildi.

Masalan: 북풍-하늬 바람 (shimoldan esgan shamol ),

동풍-썰 바람 ( sharqdan esgan shamol ),

우물-샘(quduq ),

꼬뿔-감기 ( shamollash).

### Chxunchxondo shevasi

Ushbu shevaning umumiy xususiyatlari Kyongido va Kanvando shevalari bilan o'xshash.

Chxunchxondo shevasining xususiyatlari:

1. 10 ta unli harf sistemasidan iborat:

이, 에, 애, 위, 외, 어, 오, 우, 으, 아

2. ㅈ va ㅊ undoshlari til oldi [t] bo'lib kelish xususiyatiga ega.

3. Jarangdorlik bo'lmasada, tovush cho'ziqliligi mavjud.

4. [ㄱ], [ㄷ], [ㅌ] tovushlari jarangli undoshlar orasida kelganida kuchsiz talaffuz qilinadi, lekin tushib qolmaydi. Ushbu tovushlar Kyonsando shevasiga qaraganda kuchsizroq talaffuz qilinadi.

Masalan: 모래-[몰래]

맷다-[매굽다]

입술-입술기]

줄음-[조보름]

Bunday hodisalar viloyatning shimoliy qismida ko'p kuzatiladi, janubida esa kamroq.

Chxuchxondo rayoning janubida [ㅌ] tovushi kuchliroq ifodalangan holda saqlanadi.

Masalan: 마을-[마실]

가을-[가실]

5. Unli tovushlarning o'zgarishi.

Masalan: 고기-[괴기]

토끼-[퇴끼]

6. Tovushning yumshatilishi hodisasi mavjud. Bu hodisa viloyatning janubiy qismida kuchliroq talaffuz qilinadi.

Masalan: 길-[질]

해돋이-[해도지]

7. "So'z boshi qoidasi" mavjud. ㄱ, ㄷ, ㅌ, ㄴ harflarini so'z boshida orttirilishini kuzatish mumkin.

Masalan: 도량-[또량]

개미-[깨미]

Lekin bu hodisa Chollado va Kyongsando shevalariga qaraganda kuchsiz talaffuz qilinadi.

8. Agar (padchimda) ㄷ undoshidan keyin ㅌ undoshi kelsa, faqat ㄷ undoshi talaffuz qilinadi:

9. Unli tovushlarning o'zgarishi.

Masalan: 떡이다-[떼기다]

집히다-[재피다]

10. Tugallanuvchi kelishik qo'shimchalaridan foydalaniladi.

Masalan: Bosh kelishik -이/가, tushum kelishik -르/얼/를/을, qaratqich kelishik -의, jo'nalish kelishik -에게/게/한테, birgalik kelishik -으루, birgalikda -하구/허구, 와/과, o'rin kelishik -에/이.

11. Gapdagi -겻/것/것 qo'shimchalari kelasi zamon ma'nosini beradi. O'tgan zamon ma'nosini yasaydigan -왔/왔 qo'shimchalari mavjud. Hamda -더, 더 kabi qo'shimchalardan ham o'tgan zamon ma'nosini yasash mumkin.

12. Suhbatdoshga murojaat qilish qoidasining 6 xil darajali formasi mavjud:

해라, 해, 하게, 하오, 해요, 하십시오.

Chxuchxondo viloyatining 25 ta uezdi mavjud bo'lib, janubidagi 4 ta uezdi 예산, 연기, 보령, 사천 va shimoldagi 3 ta uezdi -진천, 당양, 제원 hududlarida -하오 formasi ishlatilmaydi.

13. Uzun va qisqa inkor formalar mavjud.

14. *쫓다* (termoq) so'zi-shevada *쫓다* deyiladi ;

*사다* va *팔다* so'zlari adabiy tilda bir biriga zid ma'noli so'zlar hisoblanadi.

Adabiy tildagi *사다* so'zi-sotib olmoq degani, bu shevada esa-*팔다* so'zi ishlatiladi.

Adabiy tildagi *팔다* so'zi sotmoq degani, bu shevada esa *사다* so'zi ishlatiladi.

15. Chxunchxonda shevasining o'ziga xos leksik so'zlari:

Adabiy tilda

Shevada

옥수수 ( *makkajo 'xori* )

옥수깁이

새우(*krevetka*)

새우개/새우지/새뱅이

잠자리( *to 'shak* )

자마리

반찬 (*yengil ovqat*)

건거니

**Kanvando shevasi**

Kanvando viloyatii Txebek tog' tizmasidan o'tgani uchun sharqiy va g'arbiy shevalarga bo'linadi. Sharqiy sheva Xamgendo va Kyonsando viloyatlari o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi, hamda Xamgendo viloyatining janubiy qismi bilan o'xshash xususiyatlari mavjud.

Kanvando shevasining muhim belgilari:

1. Viloyatning 강릉, 삼천, 영월 hududlarida tovush ohangdorligi mavjud.

회양, 이천, 양구, 화천 hududlarida esa, tovush ohangdorligi ham, tovush cho'ziqliligi ham mavjud emas.

2. [ㄱ, ㅂ, ㅅ] tovushlari jarangli undoshlar o'rtasida kelganida tushib qolmaydi.

Masalan: 가랑비-[갈강비]

개울-[개굴]

[ㅂ] tovushining saqlanishi:

입술-[입술기]

병어리-[버버리]

[ㅅ] tovushining saqlanishi:

마을-[마실]

냉이-[나생이]

3. Kyonsando, Chollado, Xamgyondo, Chxuchxondo shevalarida undosh tovushining orttirilishi.

Masalan: 도깨-[또깨비]

시래기-[씨래기]

소주-[쏘주]

4. "So'z boshi qoidasi" mavjud.

5. Padchimda ㄱㄱ, ㄴㅂ, ㄴㅅ undoshlari yonma- yon kelsa, faqat ㄴ undoshi talaffuz qilinadi.

Masalan: 갈 (가을)-[갈]



흥-[흥]

6. Regressiv assimilyatsiya (bir tovushning ikkinchi bir tovush ta'siri bilan o'zgarishi) ㅇ| tovushi hodisasi:

Masalan: 잡히다-[재피다]

녹이다-[뇌기다]

7. Unlilar ohangdoshligi kuchsiz; tugallanuvchi -아서, -아라, -았 qo'shimchalaridan cho'ziq hamda ochiq unlilar (양성 모음) tizimida deyarli foydalanilmaydi.

8. G'arpdan tashqari Sharqiy hududning 3 qismida 리, ㄷ (불규칙) kabi noto'g'ri fe'l qoidasi mavjud emas. Lekin padchimda keladigan ㅅ(불규칙) undoshining noto'g'ri fe'l shaklining ayrim formalari mavjud.

9. Ish harakatning bir vaqtda yoki bir vaziyatda ekanligini ko'rsatishda -며 (면서) qo'shimchasining o'rniga -면 qo'shimchasi ishlatiladi. Gumon yoki shart ma'nosini ifodalaydigan -면 qo'shimchasining o'rniga -문 qo'shimchasidan foydalaniladi.

10. Viloyatning tog'li hududlarida bosh kelishik -가 ning o'rniga -거 ishlatiladi.

So'zimiz unli tovush bilan tugasa, ㅇ/ bosh kelishigi qo'llaniladi.

Masalan: 모이 잘 좋거든 – shevada

모가 잘 자라거든 – adabiy tilda.

Samchxok rayonida har ikkala bosh kelishik qo'shimchasidan foydalaniladi. Yana -의, 아/어 qaratqich kelishik, -을/를, 으/르 tushum kelishik, -예/애, -애더/애더거 o'rin-joy kelishiklari ham mavjud.

11. Suhbatdoshga murojaat qilish qoidasining 6 xil darajali formasi mavjud:

해라, 해, 하게, 하오, 해요, 하십시오.

Sharqiy qism shevasining 하오 formasi 오/우/소 tarzida tugallanadi.

12. Leksik so'zlari:

Adabiy tilda

Shevada

|                                         |      |
|-----------------------------------------|------|
| 놀 ( <i>mavj urayotgan to'lqin</i> )     | 놀리   |
| 구석 ( <i>burchak</i> )                   | 구세기  |
| 동풍 ( <i>sharqdan esayotgan shamol</i> ) | 늘바람  |
| 우물 ( <i>quduq</i> )                     | 웅굴   |
| 옥수수 ( <i>makkajo'xori</i> )             | 강냉이  |
| 개구리 ( <i>qurbaqa</i> )                  | 개구락지 |

### Chollado shevasi

Chollado viloyati janubiy va shimoliy Chollado shevalarga bo'linadi. Janubiy Cholladoning janubiy – sharqiy qismi shevasi Kyonsando shevsining umumiy xususiyatlari bir – biriga yaqin. Ushbu sheva bilan Kyonsando shevasi fonetik, leksik hamda Grammatik jihatdanam bir – biri bilan o'xshash.

Chollado shevasining muhimbelgilari:

1. 10 ta unli harf sistemasidan iborat:

이, 에, 애, 위, 외, 어, 오, 우, 으, 아

Janubiy Cholladoning g'arbiy markazida ऐ va ऐ tovushlari farqlanmaydi, shu sababli 9 ta unli tovush mavjud. 의 diftongi [ ] yoki [—] tarzida talaffuz qilinadi.

2. Unlilar ohangdoshligi bo'lmasada, tovush cho'ziqliligi mavjud.

3. [ㄱ] tovushi jarngli undoshlar orasida kelganida, kuchsiz talaffuz qilinadi.

Masalan: 머루-[떨구]

얼레벗-[얼기빳]

Ba'zi rayonlarda [ㅁ] tovushi saqlanib qolgan. Sharqiy qismda [ㅁ] tovushining qo'llanilishi saqlanib qolingani, g'arbiy qismda ushbu tovush [b] va [w] tarzida talaffuz qilinadi.

Masalan: 병어리 [버버리]-soqov (adabiy tida); 여위다-(g'arbiy shevada) 애비다-(sharqiy shevada)-ozmoq.

ㅈ tovushi hamma joyda saqlanadi.

Masalan: 무-[무시]

가위-[가새/가시개]

Janubiy Kyonsando va 구례, 광양, 여천, 여수 hududlarida ㅁ undoshli noto'g'ri fe'l shakli qoidasi, to'g'ri fe'l qoidasi kabi qo'llaniladi va [ㅁ] undoshi talaffuzda saqlanadi.

4. 오 harfi [a] dek talaffuz qilinadi.

Masalan: 뚬-[남]

모실-[마실]

포리-[파리]

몰-[말]

Bu hodisa viloyatning shimoliga qaraganda janubiy qismida kuchliroq talaffuz qilinadi.

5. Tovush yumshatilishi kuchli ifodalanadi.

Masalan: 험-[심]

혀-[세]

길-[질]

6. “So'z boshi qoidasi” mavjud hamda regressiv assimilyatsiya (bir tovushning ikkinchi bir tovush ta'siri bilan o'zgarishi) ㅁ이 tovushi hodisasi :

Masalan: 떡이다-[메기다]

잡히다-[재피다]

7. So'z boshida kuchli tovush orttirilishi mavjud.

Masalan: 가지-[까지]

두부-[뚜부]

비둘기-[뽀둘기]

8. Unlilar ohangdoshligi mavjud emas.

9. Suhbatdoshga murojaat qilish qoidasining 6 xil darajali formasi mavjud: 해라, 해, 하게, 하오, 해요, 하십시오.

10. Kelasi zamon qo'shimchasi -겠 ning o'rniga -것 qo'shimchasi ishlatiladi.  
 Hurmat ma'nosini ifodalovchi -시 va -게/겨 qo'shimchalari ham mavjud.  
 Bu shevada, -게/겨 qo'shimchasi bilan predikat kesimlik shakli yasaladi.  
 -시 qo'shimchasi bilan esa, tuslanmaydigan fe'l (ot, sifat va h.k) shakli yasaladi.

Masalan : 언제 외겼소 ? – shevada

언제 오시였소 ? – adabiy tilda

저분이 교감이시지랴오 – shevada

저분이 교감이시오 – adabiy tilda

11. 버리다 (버리다) fe'li juda kup qo'llanilib, asosi fe'l bilan qoshilib keladi  
 hamda ish–harakatning tuggallanganligini bildiradi.

12. Uzun va qisqa inkor formalar mavjud.

13. Asosiy leksik so'zlari :

|              |         |
|--------------|---------|
| Adabiy tilda | Shevada |
|--------------|---------|

|              |     |
|--------------|-----|
| 고양이 (mushuk) | 과대기 |
|--------------|-----|

|           |    |
|-----------|----|
| 겨울 (qish) | 시안 |
|-----------|----|

|                   |     |
|-------------------|-----|
| 반찬 (yengil ovqat) | 건거이 |
|-------------------|-----|

|               |    |
|---------------|----|
| 호주머니 (hamyon) | 괴비 |
|---------------|----|

|               |     |
|---------------|-----|
| 잠자리 (to'shak) | 자마리 |
|---------------|-----|

|                 |     |
|-----------------|-----|
| 골무 (angishvona) | 골맹이 |
|-----------------|-----|

|                   |     |
|-------------------|-----|
| 울타리 (o'siq, g'ov) | 홀타리 |
|-------------------|-----|

|            |       |
|------------|-------|
| 여우 (tulki) | 여수/야수 |
|------------|-------|

### Kyonsando shevasi

Kyonsando shevasi bilan Xamgyondo va Chollado shevalari bilan umumiy  
 o'xshash tomomnlari mavjud.

Bu shevaning xususitlari :

1. 6ta unli tovush mavjud:

이, 예, 어, 아, 우, 오.

에 va ऐ tovushlari bir xil talaffuz qilinadi, lekin bu ikkala tovushning ichidan ऐ tovushi kuchliroq talaffuz qilingani sababli ऐ tovushi alohida bu shevada mavjud emas.

Bu shevada 외, 위 kabi qisqa unli yovushlar mavjud emas hamda 의, 왜, 워 kabi diftonglar ham mavjud emas.

Masalan: 외국어-[에국어/애국어].

2. Tovush ohangdorligi mavjud bo'lsada, lekin tovush cho'ziqliligi mavjud emas.

3. Orttilirilgan [쓰] tovushi kuchsiz [ㅅ] tarzida talaffuz qilinadi.

Masalan: 싸리나무-[사리나무]

싸움-[사움]

4. Murakkab padchimdagi 'ㄷ ㅅ' tovushlaridan faqat ㅅ tovushi talaffuz qilinadi, agar ulardan keyin undosh tovush kelsa.

5. So'zlardagi birinchi keladigan undosh tovushlarning orttirilish hodisasi.

Masalan : 바닥-[빠닥]

사-[싸위]

6. 'ㄱ, ㅅ, ㅈ' undoshlari jarangli undoshlar orasida kuchli talaffuz qilinadi.

Masalan : 모래-[몰개]

홀아버-[호부래비]

누에-[누비]

가을-[가실]

7. "So'zning boshlanish qoidasi" hamda tovush yumshatilishi hodisasi mavjud.

8. Qachonki ㄷ tovushidan keyin 야, 여, 요, 유 unli tovushlar kelganida, ㄷ tovushi yumshatilgan holda tarjima qilinmasdan, uzuq-uzuq holda yarjima qilinadi. 필요-[피료] deb emas [필요] deb talaffuz qilinadi.

-라고 하 qo'shimchasi -카 deb, -려고 하 qo'shimchasi esa, -락카 deb qisqartirilgan holda talaffuz qilinadi.

Masalan : "뭐라카노?" - shevada, "뭐라고 하느냐?" - adabiy tida.

“갈락 칸다” – shevada, “가려고 한다” – adabiy tilda.

9. So'roq ganing aniqlovchi shakli :

밥 먹나 ?

그기 나무아이가 ?

-가, 거 so'roq shaklining tugallanuvchi qo'shimchasidir.

So'roq gapning izohlovchi shakli :

뭐라카노 ?

우옌노 ?

이게 누책이꼬 ?

-고/꼬 va 노 qo'shimchalari so'roq shaklining tugallanuvchi qo'shimchasidir.

10. Birgalik kelishigi -와/과 ning o'rniga -강 shakli ishlatiladi.

Masalan : 떡을 너강 나강 농가 목자-shevada

떡을 너와 나와 나누어 목자-adabiy tida.

소강 개강 싸우는 거 본이까네 개가 시드라-shevada

소와 개와 싸우는 것을 보니까 개가 세더라-adabiy tilda.

11. Inkor so'zning faqat qisqa shakli mavjud.

12. Suhbatdoshga murojaat qilishning 4 xil darajali ko'rinishi mavjud;

해라, 하게, 하오, 하십시오.

13. Leksik so'zlari:

Adabiy tilda

Shevada

아버지 ( dada )

아빠/아바이

어머니 ( oyi )

오메/어망이

할아버지 ( bobo )

할배

이웃 ( qo'shni )

이웃

감기 ( shamollash )

개대가리

두부 ( turp )

초포

더위 ( issiq )

더버

## Chechjudo shevasi

Chechjudo orol bo'lishiga qaramay, Kyonsando, Chxuchxondo va Chollado shevalari bilan yaqinlik aloqalaro mavjud bo'lsada, Yukjin shevasi bilan umumiy o'xshash jihatlari ko'p.

Chechjudo shevasining xususiyatlari :

1. 6 ta unli tovushi mavjud:

이, 예, 애, 으, 어, 우

2. Tovush ihangdorligi hamda tovush cho'ziqliligi mavjud emas.

3. Kuchli talaffuz qilinadigan “ㄱ” tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida, tushib qoladi yoki kuchsiz talaffuz qilinadi. [ㄱ] tovushining saqlanishi juda kam holatlarda uchraydi:

구멍-[궁기]

심는다-[심근다]

Kuchli talaffuz qilinadigan ㅁ tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida tushib qoladi yoki kuchsiz talaffuz qilinadi. ㅁ tovushining saqlanishini faqat bitta so'zda uchratishimiz mumkin: 우엥-[우방지]

ㅈ tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida umuman ifodalanmaydi.

Faqatgina 2-3 ta qadimiy korey so'zlarda uchratishimiz mumkin:

Masalan: 마음-[모슴]

가을-[가슬]

겨울-[저슬]

4. So'zning boshlanish qoidasi mavjud.

Kuchli tovush yumshatilish hodisasi ㄷ, ㅌ, ㅊ, ㅌ, ㅎ tovushlarida mavjud.

Masalan: 형-[성]

호지-[소지]

5. Undosh tovushlarning orttirilish hodisasi kam uchraydi. Lekin undoshlarning qattiqlashuv hodisasi ko'p uchraydi.

대들보-[대들포]

변개-[편개]

6. Regressiv assimilatsiya hodisasi mavjud.

Masalan : 고기-[꺄기]

토끼-[튀기]

7. -암/엄/염 Ish – harakatning davomiylik zamonni bildiruvchi qo'shimchalardir.

그디서 꺄기 자뺑서-shevada

저기서 고기 잡고 있어요-adabiy tilda.

뺑테레 감저-shevada

뺑에 가고 있다-adabiy tilda.

O'tgan zamon ma'nosini beruvchi 겻, 커, 쿠 qo'shimchalari mavjud.

-쿠 qo'shimchasi hurmat shaklini yasaydi.

Masalan : 이 호당 가커다?-[shevada]

일 하다가 가꺄다 ?-[adabiy tilda]

나도 가쿠다-[shevada]

나도 가꺄다-[adabiy tilda].

8. -아서 qo'shimchasining o'rniga -양/영 qo'shimchasi ishlatiladi.

Masalan : 가당 물어 가쿠다-(shevada)

가다가 물어서 가꺄다-(adabiy tilda)

9. -이, 래/리 qo'shimchalarini bosh kelishik qo'shimchasi sifatida foydalanishadi.

Agar so'zning oxiri unli bilan tugasa, -래/리 yoki undosh bilan tugasa, -이 qo'llaniladi.

Masalan : 고무리 뺑이 거뺑호다-(shevada)

가루가 뺑이 거뺑다-(adabiy tilda)

뺑이 오키여-(shevada)

뺑이 오꺄 -(adabiy tilda)

10. Suhbatdoshga murojaat qilishning 4 xil darajali ko'rinishi mavjud;

해라, 하꺄, 하오, 하십시오.



11. Inkor so'zning qisqa va uzun shakli mavjud:

Masalan : \* 쓰지 않는다, 안 쓴다

\* 쓰지 못 한다, 못 쓴다

12. Asosiy leksik so'zlari :

|              |         |
|--------------|---------|
| Adabiy tilda | Shevada |
|--------------|---------|

|              |    |
|--------------|----|
| 하루 (bir kun) | 호를 |
|--------------|----|

|         |    |
|---------|----|
| 가루 (un) | 고를 |
|---------|----|

|             |    |
|-------------|----|
| 무당 (baxshi) | 심방 |
|-------------|----|

|                       |    |
|-----------------------|----|
| 감자 (shirin kartoshka) | 지실 |
|-----------------------|----|

|          |    |
|----------|----|
| 모래 (qum) | 모실 |
|----------|----|

### **Xvanxedo shevasi**

Xvanxedo shevasi Yukjin va Kyongido bilan o'xshash umumiy jihatlari ko'p.

1. Unli tovushlar 9 ta:

이, 예, 애, 외, 으, 어, 우, 오.

위 tovushi diftong hisoblanadi.

2. 봉산, 재령, 장면, 수안, 신계, 은율, 안악, 황주 rayonlarida tovush ohangdorligi hamda tovush cho'ziqliligi mavjud emas.

3. [ㄱ] tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida kuchsiz talaffuz qilinadi.

Masalan : 모래-[몰개]

바위-[방귀]

[ㅂ], [ㅅ] tovushlari jarangli undoshlar orasida kelganida ifodalanmaydi.

4. So'zning boshlanishi qoidasi mavjud.

ㄷ, ㅌ, ㅈ, ㅊ tovushlarida yumshalish hodisasi ro'y beradi, lekin ㅋ, ㆁ tovushlari bunday xususiyatga emas.

5. 으 unlisidan keyin ㅅ, ㅈ, ㅊ, ㅊ undoshlari kelsa, [으] tarzida , agar ㅈ kelsa, [ㅇ] tarzida talaffuz qilinadi.

6. Murakkab padchimda keladigan ㄹ ㅂ tovushlari yonma–yon kelsa, faqat [ㅂ] tovushi talaffuz qilinadi. Padchimda keladigan ㄹ ㄱ tovushlaridan esa, faqat [ㄱ] tovushi talaffuz qilinadi.

Masalan : 닭-[닥]

뺨다-[뺨따]

7. Bosh kelishik qo'shimchasi -이/가, -라. So'zimiz unli bilan tugasa, -라 ishlatiladi.

Masalan : 누구라 갔다 뉘서 ?

8. 에 qaratqich kelishigi, 과 esa, birgalik kelishigi hisoblanadi.

9. Ba'zi rayonlarda -니까, -습니까 so'roq shaklining o'rniga -니까, -시까 shaklidan foydalaniladi.

-지 qo'shimchasining o'rniga -지러, -니 qo'shimchasining o'rniga -이 ishlatiladi.

Maslan : 이제 집에 돌아왔지러?-shevada

이제 집에 돌아왔지 ?-adabiy tilda

어디 갔다 와이 ?-shevada

어디 갔다 왔니 ?-adabiy tilda

10. -졌 qo'shimchasining o'rniga -жат, -가 qo'shimchalaridan foydalaniladi.

Ba'zi rayonlarda 듣다 fe'li to'g'ri fe'l hisoblanadi.

11. Suhbatdoshga murojaat qilishning 6 xil darajali ko'rinishi mavjud:

하십시오, 해오, 하오, 하게, 해라, 해.

12. O'ziga xos leksik so'zlari:

Adabiy tilda

Shevada

아침

아적

거짓말

거짓부리

이웃

오래

웃

우테

고추

당추

고구마

호감자

### **Penando, Xamxendo, Yukjin shevalari**

Penan va Chaganyu viloyatlari Xvanxedo shevasiga qaraganda Penando shevasidan ko'proq foydalanishadi.

Bu shevaning o'ziga xos xususiyatlari:

1. 8 ta unli tovushi mavjud:

이, 예, 애, 으, 어, 아, 우, 오.

의 diftongi mavjud emas, bu diftong 으 yoki 이 tarzida namoyon bo'ladi. Agar 의 diftongi ikkinchi morfema sifatida kelsa, 이 deb tallaffuz qilinadi. Agar birinchi morfema bo'lib kelsa, 이 yoki 으 deb talaffuz qilinadi:

의사-[으사]

희망-[히망]

토의-[토이]

야, 여, 요, 유 diftonglari so'zda birinchi yoki shu diftonglardan keyin undosh tovush kelsa, 아, 어, 오, 우 tarzida talaffuz qilinadi:

요리-[노리]

차표-[차포]

열다-[얼다]

2. Barcha rayonlarda tovush ohangdorligi hamda tovush cho'ziqliligi mavjud emas, faqatgina sharqiy qismdagi Hujang rayonida tovush ohangdorligi mavjud.

3. 이 regressive assimilyatsiya tovushi 入, 丕, ㅈ tovushlaridan keyin kelsa, [이] deb emas, [으] deb talaffuz qilinadi.

Masalan : 아침-[아침]

음식-[음식]

십원-[십원]

4. [ㄱ] tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida, kuchsiz tallafuz qilinadi. 후창 tumanidan tashqari, boshqa hamma tumanlarda [ㅈ], [ㅊ] tovushlari jarangli undoshlar orasida kelganida talaffuz qilinmaydi.

5. Tovush yumshashilishi hodisasi mavjud emas. ㅈ harfi [ㅊ] deb talaffuz qilinadi.

Masalan: 좋다-[도:타]

중국-[둥국]

6. So'zimiz 야, 여, 요, 유, 이, 예 unli tovushlar bilan boshlansa, talaffuzda [ㄴ] tovushi orttiriladi.

Masalan: 여자-[녀자]

이곱-[닐곱]

So'zimiz ㄷ harfi bilan boshlanib, hamda ushbu harfdan keyin unli tovushlar kelsa, tallaffuzda ㄷ harfi [ㄴ] ga o'zgaradi.

Masalan: 양반-[냥반]

류행-[뉴행]

7. Murakkam padchimdagi ㄹ1, ㄹ2 harflari talaffuzda faqat ㄹ harfigina talaffuz qilinadi.

Masalan: 흥-[흥]

넓다-[널따]

8. Bosh kelishik qo'shimchasi -이 yopiq bo'g'inlarga ishlatiladi, -래 bosh kelishigi esa, ochiq bo'g'inlarga ishlatiladi.

Masalan: 내래 갑자 오갓수다 - shevada

내가 갔다 오겠습니다 - adabiy tilda

소래 달아났어요 - shevada

소가 달아났어요 - adabiy tilda

코이 큰 그 예미네 말이요? - shevada

코가 큰 여자 말이요? - adabiy tilda

-에 qo'shimchasidan qaratqich kelishigi qo'shimchasi sifatida ishlatiladi. -(으)루 dan esa, birgalik kelishigi sifatida foydalanishadi. -까지 (꺼정) ga, -부터 (부터) ga, 조차 - (암불라 /암걸라) ga o'zgaradi.

Masalan: 나암불라 안 가든 돼갓수?

나조차 안 가면 되겠소?

너암걸라 달라고 그르든 어카간?

너조차 달라고 그러면 어떻게 하겠나?

Bog'lovchi vazifasida keluvchi -와/과 qo'shimchalaridan faqat -과 ishlatiladi. -하구 qo'shimchasi ham xuddi shunday vazifani bajaradigan qo'shimchalardan biri hisoblanadi. Yoki -하구 qo'shimchasining o'rniga -라 qo'shimchasi ishlatilishi mumkin.

9. -겠 qo'shimchasining o'rniga -갓 shaklidagi qo'shimchadan foydalaniladi. Gapda -월/원 qo'shimchasi ehtimol, taxmin ma'nosini anglatib keladi.

Masalan, 일을 하갓으면 똑똑히 하구라-shevada

이를 하겠으면 똑똑히 하구요-adabiy tilda

잇소원다-shevada

있겠다-adabiy tilda

10. -라 buyruq fe'lini yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. So'roq shaklini yasaydigan -ㄹㅁㅅㅁ다/슴ㅁㅅ다, -ㄹㅁㅅ다/스ㅁㅅ다/슴ㅁㅅ다 kabi qo'shimchalari mavjud. Darak gapda hurmat shaklini ifodalab keladigan -왜다, -우다/수다 fe' l qo'shimchalari aslida -오시다, -소이다 kabi qo'shimchalarning o'zgargan shaklidir.

Masalan: 우리 집 인간은 야덜이왜다-shevada

우리 집식구는 여덱입니다-adabiy tilda

11. 듣다 noto'g'ri fe'li esa to'g'ri fe'l sifatida qabul qilingan.

12. Suhbatdoshga murojaat qilishning 6 xil darajali ko'rinishi mavjud:

하십시오, 해요, 하오, 하계, 해라, 해.

## Xamxendo shevasi

1. Xamxendo shevasi 이, 예, 애, 으, 어, 아, 오, 우 kabi 8 ta unli harfdan iboratdir. 의 diftongi mavjud emas. Agar 의 diftongi so'zimizning boshida, ya'ni birinchi morfema bo'lib kelsa, [으] talaffuz qilinadi. Agar so'zimizning ikkinchi bo'g'inida kelsa, [ㅇ] deb talaffuz qilinadi.

2. Xamgendo viloyatining 영흥, 고원, 문진, 안변 hududlaridan tashqari boshqa hamma hududlarida tovush ohangdorligi mavjud.

3. [ㄱ] tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida, kuchliroq talaffuz qilinadi.

Masalan: 구멍-[궁기]

시렁-[실경]

머루-[멀구]

[ㅂ] tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida, kuchliroq talaffuz qilinadi.

Masalan: 새우-[새비]

누이-[누비/누배]

[ㅅ] tovushining jarangli undoshlar orasida kelganida saqlanishi:

부엌-[부숫제]

마을-[마실]

4. So'z boshida kelgan undosh tovushlarning orttirilish hodisasi:

산다-[싼다]

가지-[까지]

5. Unli harflarning assimilyatsiya, ya'ni bir tovushning ikkinchi bir tovushga ta'siri hodisasiga uchrashishini kuzatishimiz mumkin. ㅅ, ㅈ, ㅊ undoshlaridan keyin keladigan ㅇ unlisining talaffuzda [으] ga o'zgarishi:

심다-[슴다]

싫다-[슬다]

6. Undosh tovushlarining yumshatilish hodisasini faqatgina Xamgendo viloyatining shimoliy qismida kuzatishimiz mumkin:

키-[치]

기다리다-[지달구다]

7. Odatda tushib qoladigan ㄴ tovushi bu shevada tushib qolmaydi, aksincha kuchliroq talaffuz qilinadi:

소나무-[솔나무]

화살-[활살]

8. Bosh kelishik qo'shimchasi hisoblangan -으| ochiq bo'g'inlarda qo'llaniladi. -으| qo'shimchasi yopiq bo'g'inlarda ham qo'llaniladi, faqat -으| dan keyin -가 bosh kelishik qo'shimchasi ham qo'llaniladi:

하나이 더 만으믄 좋지비 - shevada

하나가 더 많으면 좋자- adabiy tilda

이 컷이가 저컷 보다 좋수다- shevada

이 컷이 저격보다 좋습나다-adabiy tilda

-으 qaratqich kelishigi sifatida, -르 esa tushum kelishigi sifatida foydalaniladi. -셔/이셔 qo'shimchalari esa predlogli kelishik qo'shimchalari hisoblanadi.

Masalan: 쇠르 몰고 가우다

소를 몰고 가시오

9. 이우, 히우, 리우, 기우 aniq va majhul nisbat qo'shimchalari hisoblanadi. Xamgendo viloyatining 영흥, 고원, 문천, 안병 hududlaridan boshqa hamma hududlarida 춥다 fe'li to'g'ri fe'l sifatida qo'llaniladi.

10. Darak gapning tugallanuvchi qo'shimchalari:

-ㅁ다, -ㅁ니 ( 습니 ), -ㅁ ( 습 ), -우다, -수다, -무, -지비, -이.

So'roq gapning tugallanuvchi qo'shimchalari:

-ㅁ니까, -ㅁ까 ( 습까 ), -까.

Buyruq gapning tugallanuvchi qo'shimchalari:

-ㅁ소, -ㅁ소세, -소

Xohish – istak gapining qo'shimchalari:

-ㅂ세다, -기오, -ㅂ세.

Birikturuvchi yoki bog'lovchi qo'shimchalari standart tildagi bog'lovchilaridan farq qiladi:

-메로(며), -멘서(면서), -니까니/니까나/이까테(니까), 문/무/므(면), -르라(러), -지구(려고/고자).

Masalan : 두 개이 더 많으면 좋지버- shevada

두 개가 더 많으면 좋지- adabiy tilda

11. Suhbatdoshga murojaat qilishning 5 xil darajali ko'rinishi mavjud:

하십시오, 하오, 하계, 해라, 해.

12. Inkor qo'shimchalarining faqat 아니 va 못 shakllari mavjud bo'lib, ular murakkab fe'l ko'rinishini tashkil etadi:

먹어 아니 보스-shevada

먹어 보지 않았어-adabiy tilda

말 알아 못 듣소-shevada

말을 알아 듣지 못 하오-adabiy tilda

13. Tubdan farq qiluvchi leksik so'zlari:

흥-흥기

겨울-동삼

반찬-햄

큰어머니-마대매

## Yukjin shevasi

1. 이, 으, 외, 어, 아, 오, 우 kabi 8 ta unli tovushlari mavjud.

2. Tovush ohangdorligi mavjud.

3. Assimilyatsiya hodisasi mavjud emas. ㅅ, ㅈ, ㅊ undoshlaridan keyin ㅇ unli harfi kelsa, [으] deb talaffuz qilinadi:

시어머니-[스어머니]



시집-[그집]

심심하다-[슴슴하다]

4. [ㅅ] tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida saqlanadi:

겨울-[겨술]

마을-[마실]

[ㅂ] tovushi jarangli undoshlar orasida kelganida saqlanadi:

누이-[누비]

누에-[누베]

[ㄱ] tovushining jarangli undoshlar orasida kelganida saqlanadi:

넵다-[내굽다/내구다]

가루-[갈기]

5. Geminatizatsiya, ya'ni tovush orttirilish hodisasi mavjud:

샷-[쫘] *ish haqqi*

조끼-[쫘끼] *nimcha*

6. ㅏ va ㅑ undoshlarining yumshatilish, ya'ni palatalizatsiya hodisasi mavjud:

감-[지슴]

치갈-[치쩔]

7. So'z boshida ㄴ tovushining orttirilishi, ya'ni 여, 예, 요, 유, 이, 예 unlilari bilan boshlanadigan so'zlarda ㄴ undoshining orttirilishi:

여름-녀름

이부자리-니부자리

Lekin ㄷ undoshi bilan boshlanadigan so'zlardan keyin 여, 야, 요, 유, 이, 예 unli tovushlari kelsa, ㄷ tovushi [ㄴ] deb talaffuz qilinadi:

[ 나, 녀, 뇨, 니, 뉴, 념 ]

8. -ㅇ bosh kelishik, hamda -에, -으, -우 kabi qaratqich kelishigi qo'shimchalari mavjud. -ㅇ va -에 til undoshlaridan keyin, -우 esa lab

undoshalaridan keyin qo'llaniladigan qaratqich kelishigi qo'shimchalaridir.

-과/파 qo'shimchalari birgalik kelishigi qo'shimchalari hisoblanadi.

9. -겠 qo'shimchasining o'rniga -갓 shakli qo'llaniladi.

10. Darak gapning tugallanish shakllari:

-꾸마 (스꾸마), -꼬마 (스꼬마), -뛰니/파니, -디

So'roq gapning tugallanish shakllari:

-니까, -ㄴㄷ, -슴둥, -심둥, -니

Yukjin shevasida standart tilda foydalaniladigan -더냐 qo'shimchasining o'rniga -든 shaklidan foydalanishadi. Hamda bu shevada so'roq gapni hosil qiluvchi -니 qo'shimchasi va o'tgan zamonni anglatib keladigan -았/었 qo'shimchalari birgalikda yonma-yon kelsa, soddalashtirilgan shakli ham mavjud.

Masalan: *그 사람이 떠라든?-shevada*

*그 사람이 무엇이라고 하더냐?-adabiy tilda*

*밥으 가져완?-shevada*

*밥을 가져왔니?-adabiy tilda*

Buyruq gapni hosil qiluvchi qo'shimchalari:

-ㄴㄹ, -게

11. Suhbatdoshga murojaat qilishning 5 xil darajali ko'rinishi mavjud:

하십시오, 하오, 하계, 해라, 해.

12. -아니 va -못 kabi inkor shakllari mavjud:

*들어 못 간다*

*들어 안 간다.*

13. Ushbu shevaning o'ziga xos leksik so'zlari:

*할아버지-크라반*

*남편나-그네*

## **2.2. arxaik so'zlarning koreyscha shevada qo'llanilishi.**

Til jamiyatda sodir bo'layotgan har bir o'zgarishning in'ikosi sifatida doimiy rivojlanishda, takomilda. Tildagi leksik birliklar zamonaviyligiga ko'ra teng 2 ga bo'linadi. **1. Eski qatlam**

## **2. zamonaviy qatlam.**

Eski qatlam istorizm va arxaizmdan iborat. O'tmishda xalqimiz tomonidan ishlatilgan narsa, predmetlar, joylar, kiyim-kechak, oziq-ovqat nomlari hozirda ishlatilmay qo'yilgan. Ular hayot zaruriyati tufayli kundalik turmushimizdan chiqib ketgan.

**Istorizm** yunoncha **historia-tekshirish, tadqiqot** so'zlaridan olingan bo'lib, tarixga oid hozirgi kunda yo'q bo'lib ketgan narsa, hodisalarning nomini bildiruvchi so'zlar sanaladi. Masalan, o'tmishda o'zbek xalqi haoyotida faol ishlatilgan *amir, xon, devonbegi, cho'ri, qul, qorovul, borongor, jorongor* kabi so'zlar bugungi kunda tilimizda ishlatilmay qo'yilgan. Istorizmlar badiiy asarlarda, fel'eton va tanqidiy maqollarda stilistik vosita sifatida ishlatiladi (go'ja, umoch, zog'ora, paranji, kuloh, omoch, mola) kabi. Istorizmlar ham ko'chma ma'noda yumor, hajv, piching ma'nosini beradi: mana, vasiqangiz ("nikoh xati" ma'nosida), oltin kishan ("boy qizi" ma'nosida).

**Arxaizm** so'zi yunoncha **archolos-qadimgi** so'zidan olingan bo'lib, hozirda mavjud bo'lgan zamonaviy narsa hodisalarning eskirib qolgan atamalari sanaladi. Ular **arxaik** so'zlar deb ham ataladi. Arxaizmlar lug'aviy birliklar orasida ham, Grammatik hodisalar ichida ham uchraydi. Arxaizmlarning paydo bo'lish sabablarini xalq ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, madaniyati va san'atining o'zgarishi, takomillashishi bilan izohlash lozim. Arxaizmlar-eskirib iste'moldan tushib qolgan, ammo o'z ekvivalentiga, ya'ni sinonimiga ega bo'lgan so'zlardir. Masalan: *bitik-xat, manglay-peshona, eng-yonoq, bet, o'tmak-non, usruk-mast, uchmoq-jannat, tamug-do'zax, dudoq-lab, o'miz-ko'krak, meng-xol* kabi.

Arxaizmlar 2 xil bo'ladi: **a) leksik arxaizmlar:** *al(qul), ochun(dunyo), abushqa(qari)* kabi; **b) frazeologik arxaizmlar:** *yoqasini chok etmoq, alifni ham bilmaydi, eti sizniki suyagi bizniki.*

Arxaizm hozirda bor bo'lgan narsaning nomini ifodalashi, zamonaviy qatlamdagi sinonimiga ega ekanligi, unga nisbatan tildagi o'rnining belgilanishi va **nominativ-uslubiy xossalarga** egaligi bilan tildagi boshqa hodisalardan farqlanadi. Arxaizmlardan badiiy uslubda keng foydalaniladi. Badiiy asrga ma'lum bir davr ruhini yoki ko'tarinkilini bag'ishlash, ba'zida hazil-mutoyiba, mazx, kinoya maqsadlarida arxaizmlardan ununli foydalaniladi. Maslan: *Ha, kashshof yo'l bo'lsin!* (*hazrat, taqdir, afandim* so'zlari o'rtoq so'ziga sinonim qilib ishlatiladi). Arxaizmlar tilning o'ziga xos boyligi sanaladi. **Grammatik arxaizmlar:** -mak, -gush, -ov affiikslaridir.

Arxaizmlar va istorizmlar yozma va og'zaki nutqda o'rinsiz ishlatmaslik lozim. Aks holda, nutq qorong'ulashadi, aytmoqchi bo'lgan fikr anglashilmay qoladi. Ayniqsa, bolalarga mo'ljallab yoziladigan badiiy asarlarda eskirgan leksikasini qo'llashda juda ham ehtiyot bo'lish lozim. Shuning uchun ayrim yozuvchilar o'z asarlarini qayta nashrga tayyorlaganda arxaik so'zlarning ko'pchilik qismini yangi sinonimlarga almashtirishga harakat qiladilar.

Koreys tili shevasida ham xuddi o'zbek tili singari arxaik so'zlar mavjud ekan. Bu arxaik so'zlardan ayrim hududlarda yashovchi koreys xalqi kundalik hayotida hali ham qo'llanilib kelinmoqda. Misol tariqasida ayrim hudud shevalardagi so'zlarni keltirib o'tishimiz mumkin:

Adabiy tildagi 살아 있는 꿩(*tirik tustovuq*) so'zi Seul shevasida 꿩 deb ataladi. 꾹 (yanoq) so'zi esa shevada 꾹 tarzida qo'llaniladi. 죽은 꿩(*o'lik tustovuq*) shevada 썩어 deyiladi. 해(ha) so'zi esa 네 tarzida talaffuz qilinadi.

**Kyongido shevasidagi** qadimgi-arxaik so'zlar: 하나 바람-북풍 (*shimoldan esgan shamol*), 샅 바람-동풍 (*sharqdan esgan shamol*), 샘-우물 (*quduq*), 꼬뽀-감기 (*shamollash*).

Qadimgi koreys so'zlardan bir nechitasi **Chxuchxon shevasida** ham saqlanib qolingan:

|                   |         |
|-------------------|---------|
| Adabiy tilda      | Shevada |
| 우박( <i>do'l</i> ) | 누리      |

|                 |         |
|-----------------|---------|
| 간장 (jigar)      | 자랑      |
| 원숭이 (maymun )   | 잔납이/잔냅이 |
| 여우 (tulki)      | 여수      |
| 벌써 (allaqachon) | 하마      |
| 두껍다 (issiq)     | 두텁다     |

**Kanvondo shevasiga** xos arxaik so'zlar:

|                |         |
|----------------|---------|
| Adabiy tilda   | Shevada |
| 우박 (do'l )     | 유리      |
| 부엌 ( oshxona ) | 정지      |
| 간장 ( jigar )   | 지령      |
| 상추 ( salat )   | 불기      |

Adabiy tildagi 시장 (bozor ) so'zi Cholla shevasida 저자, 배꼽 (qorin kindigi) so'zi- 배뿔, 원숭이 (maymun )so'zi- 잔납이, 도끼 (bolta) so'zi- 도치, 여우(tulki) so'zi- 여수 tarzida foydalaniladi.

Shevalar orasida eng murakkabi hamda tushunish qiyin bo'lgan shevalardan biri **Chejudo shevasi** hisoblanadi. Bu shevani tushunishda, hattoki, koreyslar ham qiynalishar ekan. Chejudo shevasiga xos bo'lga arxaik-qadimiy so'zlarni ham faqat Chejudoda yashovchi xalqlargina bilishar ekan.

|               |         |
|---------------|---------|
| Adabiy tilda  | Shevada |
| 산 (tog')      | 오름      |
| 부엌( oshxona)  | 정제      |
| 숟가락 (qoshiq)  | 술       |
| 두꺼비 (qurbaqa) | 두테비     |
| 도끼 (bolta)    | 도치.     |

**Yukjin shevasining** ham o'ziga xos bo'lgan bir qancha arxaik so'zlarni misol tarzida keltirib o'tishimiz mumkin:

|              |         |
|--------------|---------|
| Adabiy tilda | Shevada |
|--------------|---------|

저녁

나조

큰어머니

마대매

가위

가새

혼자

하분자

소

쇼

부엌.

정지

## **XULOSA**

O'zbekiston davlati ham mustaqil davlatlar qatoriga kirganidan so'ng, yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan jamiyatimizni tashkil etadigan har bir

sohada juda ko'plab yangidan-yangi islohotlarni amalga oshirib keldilar va hali ham bu kabi islohotlarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Shu o'rinda yutboshimiz I.A.Karimovning islohotga bergan ta'riflarini ta'kidlab o'tsak: “ Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak”<sup>1</sup>.

Prezidentimiz, ayniqsa, biz kabi o'sib kelayotgan yosh avlodga kelajagimiz yorqin va istiqbolli bo'lishi uchun har bir sohada keng imkoniyatlarni yaratib bermoqdalar.

Ushbu gapimning dalili sifatida Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi gaplarini keltirib o'tishni joiz topdim: “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori, avvalambor, farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak”<sup>2</sup>.

Gap biz yoshlar haqida ketar ekan, bizlar uchun olib borilayotgan va yaratilayotgan imkoniyat va shart-sharoitlar, ayniqsa, ta'lim sohada bo'layotgani hech kimga sir emas. Yurtboshimiz tomonidan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Chet tilini yanayan chuqurroq o'rganish” to'g'risidagi qarorlarini eslashning o'zi kifoyadir. Qaysi chet tilini o'rganishdan qat'iy nazar o'sha tilning va davlatining tarixi, madaniyatini ham chuqurroq o'rganish uchun o'sha til davlatlariga borib o'qib kelish imkoniyatlari keng yo'lga qo'yilib kelinmoqda.

Har qanday tilni o'rganishda o'z ona tilimiz bilan o'rganilayotgan tilni qiyoslab o'rgansak, shu tilni tez anglab, mukammal bila olishimiz mumkin, chunki har qanday qiyoslash natijasida qiyoslanayotgan hodisadagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash mumkin. Qiyoslashda faqat tillarning bugungi holati emas, balki ularning tarixiy taraqqiyot yo'li, dastlabki yozma yodgorliklari ham hisobga olinadi. Tillardagi har qanday o'xshashlik va farqlar ularni qiyoslab o'rganish asosida aniqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, koreys va o'zbek tilidagi shevalarning fonetik va leksik jihatdan o'xshash va farqli tomonlari hamda o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

O'xshash jihatlarini hozirgi kundagi olimlarning olib borgan tadqiqotlariga qaraganda, koreys tili oltoy tillar oilasiga qarindoshlik aloqalari borligi bilan izohlashimiz mumkin.

Koreys tilida bugunda 60 mln.ga yaqin aholi so'zlashishi taxmin qilinmoqda. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, hozirda, globallashtayotgan bir davrda Koreya hamda koreys tili ham o'z o'rniga ega ekanligidan dalolatdir. Koreys tilining kelib chiqishi XIX asrda g'arb olimlari "kashf" qilgunlariga qadar noaniq edi. Koreys tilining yuzaga kelishiga xitoy, yapon, tibet, o'rol-oltoy, qadimgi hind, hind-yevropa hamda ayna tillari turtki bo'lgan deb taxmin qilishmoqda olimlar. Bu kabi taxminlarning sababi oltoy, koreys va yapon tillarining grammatik, fonetik va shevalardagi ayrim xususiyatlarning o'xshashligidadir.

Koreya yarim oroli mustaqillikni qo'lga kiritgach ikkita katta hududlarga: Shimoliy va Janubiy hududlarga bo'linib ketadi. Bu bo'linishlar natijasida Seul va Pxenyan adabiy til shevalari yuzaga keladi. Bu ikki hudud shevalari leksik, fonetik va grammatik jihatdan ham o'xshash, ham noo'xshashdir. Fonetika va leksikadagi farqli jihatlar talaffuzda ham yaqqol seziladi. Birgina Janubda *sartaroshxona* *이/밭수* deb talaffuz qilinsa, Shimolda *리/밭수* tarzida talaffuz qilinar ekan. Yana bir boshqa misolda esa, Shimoliy Koreyada *shaman ayoli* *판신*, deb atalsa, Janubda *무당* deyishar ekan.

Koreys tili butun Koreya yarim oroli bo'yicha bir qancha shevalardan foydalanadi. Koreys xalqi olti yoki yetti xil shevalarda so'zlashishlari aniqlangan. Bu shevalar quyidagi hududiy shevalardir:

- ✚ Chxunchxon shevada – Janubiy Koreyadagi janubiy chxunchxon, shimoliy chxunchxon va Tedjon shahri so'zlashadi.
- ✚ Konvon shevasidan – Shimoliy va Janubiy Koreyadagi Konvondo viloyati aholisi foydalanadi.
- ✚ Kyonsan shevasida –Janubiy Kyonsan va Shimoliy Kyonsan ( Yonnam hududi ), Janubiy Koreya va Pusan, Tegu va Ulsan shaharlari so'zlashadi.
- ✚ Xamgyon shevasida – Janubiy Xamgyon, Shimoliy Xamgyon va Shimoliy



Koreyadagi Yangando ahalosi so'zlashadi. Bundan tashqari bu shevada Xitoy va sobiq SSSR hududida yashovchi koreyslar ham so'zlashadi.

✚ Xvanxe shevasidan – Shimoliy Koreyadagi Janubiy va Shimoliy Xvanxe aholisi foydalanadi.

✚ Cholla shevasi – Janubiy Koreyadagi Janubiy Cholla va Shimoliy Cholla ( Xonam hududi ) va Kvandju aholisining shevasi hisoblanadi.

Chedju shevasida – Chejudo viloyati va Janubiy Koreyaning janubiy-g'arbiy qirg'og'idagi aholisi so'zlashadi.

Yuqoridagi shevalar orasida tushunilishi qiyin bo'lgan sheva Cheju shevasi hisoblanadi. Hattoki koreyslarning o'zi ham bu shevani tushunishda juda qiynalishlarini aytib o'tishgan. Cheju shevasining murakkabligining sababi alohida orolchada joylashganligi hamda anchayin eski bo'lgan so'z shakllarining saqlanib qolganligi yoki bo'lmasa, hozirda yo'q bo'lib ketgan Tomna tiliga oid so'zlarning halim muomilada mavjudligi bilan izohlashimiz mumkin. Masalan, Seul shevasida yoshi katta insonlarga *안녕하세요?* (“*assalomu alaykum*”), Cholla shevasida *안녕하셨습니다?* ( “*assalomu alaykum*”), Cheju shevasida esa, *반갑시요* (“*qandaysiz?*”) deb aytishadi.

Hududiy shevalarning leksik va fonetik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari hamda arxaizmlar to'g'risida quyidagi xulosalarga keldim.

Shevalar orasida Kyongido shevasi tushinilishi eng oson bo'lgan sheva hisoblanadi. Buning sababi Janubiy Koreyaning bosh dialekti hisoblangan Seul shevasi bilan leksik va fonetik jihatlari o'xshashligidandir. Masalan, Seul shevasida inkor shaklining har ikkala, uzun va qisqa turlaridan foydalaniladi:

\*놀지 못 한다

\*못 논다

\*놀지 않는다

\*안 논다

Kyongido shevasida ham inkor forma xuddi shu tarzda yasaladi. Masalan,

\*안 떠난다

\* 먹지 않는다

\* 몇 먹는다

\* 먹지 몇 한다

Arxaizmlar-eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekvivalentiga, ya'ni sinonimiga ega bo'lgan so'zlardir. O'zbek tilida dudoq-lab, o'miz-ko'krak, meng-xol kabi arxaik so'zlar mavjud. Bu arxaik so'zlar hozirda iste'moldan, ya'ni muomaladan chiqib ketgan, lekin ba'zan badiiy asarlarda qo'llanilish holatlarini ham uchratishimiz mumkin. Xuddi shunday koreys tilida ham bir qancha arxaik so'zlarga duch keldim, biroq o'zbek tilidan farqli o'laroq hozirda koreys tilida ham arxaik, ham ularning sinonimlaridan teng qo'llanilishi tahsinga sazovordir.

Masalan, adabiy tilda shevada

시장 (bozor ) 저자

배짚 (qorin kindigi) 배뿔

원숭이 (maymun ) 잔납이

도끼 (bolta) 도치

여우 (tulki) 여수

Shevalarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari to'g'risida izlanishlar olib borganimda qiziq bir ma'lumotga duch keldim. Koreyada turmush qurishda shevaning ahmiyati katta, ya'ni umr yo'ldoshining qaysi shevada so'zlashishi juda muhim hodisa hisoblanar ekan. Olim Li Chonmin tomonida butun Koreya bo'ylab so'rovnomaga o'tkazilganda aksariyat odamlar umr yo'ldoshining Seul shevasida so'zlashishlarini xohlashlari aniqlangan. Shu o'rinda yana bir ajoyib ma'lumotni keltirib o'tmoqchiman. Koreys xalqlari qaysi shevada so'zlashishlariga qarab, ularning xarakterini ham aytib berish mumkin ekan.